

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

XURRAMOV ASLIDDIN SHOKIR O'G'LI

**TEMIR YO'L TRANSPORTI RADIOALOQA TARMOG'INI
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

05.08.03 - Temir yo'l transportini ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Xurramov Asliddin Shokir o‘g‘li

Temir yo‘l transporti radioaloqa tarmog‘ini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish..... 3

Хуррамов Аслиддин Шокир угли

Совершенствование сети радиосвязи железнодорожного транспорта на основе современных технологий..... 21

Xurramov Asliddin Shokir o‘g‘li

Improvement of the railway radio communication network based on modern technologies 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

XURRAMOV ASLIDDIN SHOKIR O‘G‘LI

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI RADIOALOQA TARMOG‘INI
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4293 - raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xalikov Abdulxak Abdulxairovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Davronbekov Dilmurod Abdujalilovich**
texnika fanlari doktori, professor

Boltayev Sunnatillo Tuymurodovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 29 avgust soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy, tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (181-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy, tel: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 17-avgust kuni tarqatildi.
(2024-yil 17-avgust dagi 45-raqamli reestr bayonnomasi).




N.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor


Sh.M. Suyunbaev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor


M.X. Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
t.f.n., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Temir yo‘l transportining yuqori tezyurar uchastkalarida harakat xavfsizligini ta‘minlash va ishonchliligini oshirish, temir yo‘l transporti harakatini boshqarishni takomillashtirish funksiyalarini raqamli radioaloqaga asoslangan texnologik radioaloqa tizimlarini yaratish yetakchi o‘rinni egallamoqda. Raqamli tarmoqlarning funksiyalaridan foydalanish texnologik temir yo‘l radioaloqasining tubdan yangi imkoniyatlarini ochib beradi, bu esa transport jarayonining samaradorligi va xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Rivojlangan mamlakatlar temir yo‘l transportida harakat xavfsizligini oshirish va ta‘minlash yuzasidan radioaloqa qurilmalari holatini nazorat qilish bo‘yicha hamda qurilmalardagi nosozliklarni oldindan bashorat qilish tizimlari temir yo‘ldan texnikaviy foydalanish qoidalari yo‘riqnomasi talablariga javob bermasligi aniqlanib, radioaloqa qurilma va tizimlarining ishchi holatini masofadan turib real vaqtda nosozliklarni aniqlash va ularda o‘lchash ishlarining zamonaviy usullarini qo‘llash orqali ishonchliliklarini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtda energiya tejamkor va xavfsizligi jihatdan yuqori bo‘lgan texnologiyalar va qurilmalarni ishlab chiqarish, ularni qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda temir yo‘l texnologik radioaloqasi tarmog‘i va qurilmalari ishchi holatini nazorat qilish hamda aloqa jarayonni boshqarish tizimlarini takomillashtirish orqali harakat xavfsizligini yuqori darajada ta‘minlash va zamonaviy avtomatlashtirilgan qurilmalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, temir yo‘l texnologik radioaloqasi tizimini raqamli zamonaviy texnologiyalar bazasidagi boshqarish va monitoring qilish usullarining soddalashtirilgan algoritimli dasturiy ta‘minotlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarni olib borish muhim bo‘lib, shu bilan bir qatorda, texnologik radioaloqa tizimlarining ishonchliligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shuningdek, temir yo‘l texnologik radioaloqasi tizimining ishonchlilik ko‘rsatkichlarini hamda monitoring natijalarini va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun temir yo‘l uchastkasi mas‘ul elektromexanigiga haqiqiy vaqtda uzatish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda temir yo‘l transportining harakat tarkibini xavfsizlik tizimlari bilan bog‘liq qurilmalari va elementlarini zamonaviylashtirish, texnologiyalarga, analogli qurilmalardan raqamli qurilmalarga almashtirish, tizimdagi boshqa kamchiliklarni bartaraf etish vazifalari yuzasidan ishlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “...axborot texnologiyalarini keng joriy qilish transport, infratuzilma, ijtimoiy va boshqa sohalar bo‘yicha ma‘lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarini ishga tushirish, dasturiy ta‘minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 barobarga oshirish, transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning

infratuzilmasini rivojlantirish...”¹ borasida asosiy va muhim topshiriqlar belgilangan. Bu borada, jumladan poyezd radioaloqasi tizimida yuzaga keladigan nosozliklarni kamaytirish, uning ishonchligini oshirish, yuqori aniqlikdagi elementlar asosida tizimni monitoring qilish qurilmalarini yaratish va ilmiy jihatdan asoslash muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-oktabrdagi PQ-3336-son Respublika temir yo‘llari tarmog‘ini yanada rivojlantirish, “Pop-1–Namangan–Andijon-2” temir yo‘l liniyasi uchastkasini elektrlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobiga yo‘lovchilar va yuk tashishlar samaradorligini oshirish, 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-son “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo‘yicha mas‘uliyatini yanada oshirish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurs tejamlilik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Temir yo‘l radioaloqasi qurilma va tarmoqlarining ishonchligini oshirish, radioaloqa tizimining funktsionalligini va elektr magnit moslashuvchanligini ta‘minlash, ularning texnik va nazariy tasnifini ishlab chiqish, texnologik jihatdan yagona temir yo‘l radioaloqa tarmog‘ini qurishga qaratilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va o‘quv yurtlari tomonidan olib borilgan, jumladan Peterburg davlat temir yo‘l universiteti (Rossiya), University of Birmingham (Buyuk Britaniya), Xian Railway Engineering Staff University (Xitoy), Istanbul Technical University (Turkiya), Sapienza University of Rome (Italiya), Dresden University of Technology (Germaniya), Delft University of Technology (Daniya) va Stanford University (AQSh).

Temir yo‘l radioaloqa qurilma va tarmoqlarini yaratishning nazariy va amaliy masalalari bilan bu yo‘nalishda xorijiy olimlardan Steven W. Ellingson, P.P.Berezovskiy, N.I.Chistyakov, D.N.Roenkov, David Bailey, P.A.Plexanov, N.V.Lavrentev, V.N.Listov, Y.Y.Meremson, N.V.Golovin, P.I.Xudojtkov, Björn Ottersten, A.V.Yelizarenko, A.M.Verigo va boshqalar ko‘pgina taniqli olimlar va mutaxassislar o‘z salmoqli hissalarini qo‘shganlar. Yurtimizdagi mahalliy olimlar, temir yo‘l transportida aloqa tizimlaridagi mavjud muammolarini bartaraf etishga qaratilgan ilmiy ishlar A.A.Xalikov, V.A.Krivopishin, J.F.Kurbanov, B.A.Davletyarov N.V.Yaronova, V.M.Zakirov, S.S.Xalikov, O.A.Mirsagdiyev, G.A.Bekbayev, O.X.O‘roqov, A.A.Saitov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni

Ammo, yuqoridagi tadqiqotchi olimlarning ilmiy ishlarida to'liq ravishda temir yo'l transportida poyezd radioaloqa tizimlarini nazorat qilish, simsiz masofadan turib tahlil qilish, olingan natijalarni onlayn tarzda poyezd dispetcheriga va uchastka elektromexaniklariga uzatish usuli asosida zamonaviy elementlarni qo'llagan holda qurilmalar ishlab chiqishga, shuningdek mahalliyashtirishga chuqur e'tibor berilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №23/2023-son "“O'zbekiston temir yo'llari” AJ dagi raqamli DMR tizimini monitoring qilish va boshqarish uslubiyatini ishlab chiqish” mavzusidagi xo'jalik shartnomasi (2023-y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi temir yo'l transporti radioaloqa tarmog'ini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tezkor texnologik aloqa tarmog'ida simli va radioaloqa vositalarini zamonaviy holati va muammolarini tadqiq qilish;

temir yo'l radioaloqa qurilma va jihozlariga qo'yiladigan texnik talablar asosida harakatdagi tarkiblar mashinistlari bilan stansiya navbatchisi va poyezd dispetcheri o'rtasida uzluksiz raqamli radioaloqa so'zlashuv usullarini takomillashtirish;

raqamli radioaloqa tarmog'i qurilmalari ishlashini tadqiq qilish uchun ovozli so'zlashuvlarni uzilishsiz uzatish jarayonining matematik modellari, ishlash algoritmlari hamda dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;

tezkor texnologik radioaloqa tarmog'ida ruxsat etilmagan ma'lumotlar almashinuvi va so'zlashuvlarni uzatishda qasddan buzishlardan himoyalash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

ma'lumotlarni uzatish analog radioaloqa qurilmalaridan voz kechish va mahalliyashtirish maqsadida raqamli radioaloqa tarmoqlarini yaratish hamda uning ishonchlilik va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida temir yo'l uchastkalaridagi poyezd radioaloqa tarmog'i olingan.

Tadqiqotning predmeti tezkor texnologik radioaloqa tarmog'ining ishonchli ishlashini baholash usullari, modellari va dasturiy ta'minoti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlillash, matematik modellashtirish usullari, stoxastik tarmoqlarni topologik o'zgartirish usuli va tezkor texnologik radioaloqa tarmog'i ishlashining ishonchliligini hisoblashning mantiqiy-ehtimoliy modelidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tezkor texnologik tarmoqlarni raqamlashtirish va zahiralash orqali harakatlanuvchi tarkiblar mashinistlari bilan stansiya navbatchisi va poyezd dispetcheri o'rtasida uzluksiz raqamli radioaloqa so'zlashuv usuli takomillashtirilgan;

raqamli radioaloqa tarmog‘i qurilmalari ishlarini tahlil qilish va raqamli retranslyatorni optimal joylashtirishni hisobga olib ovozi so‘zlashuvlarni uzluksiz uzatish jarayonining matematik modellari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan aloqa tarmog‘ini mantiqiy-ehimoliy modeliga asoslangan holda radioaloqa qurilmalarini masofadan turib ularning ishchi holatini monitoringlash orqali tezkor texnologik tarmoqda raqamli ma’lumotlarni uzatish ishonchliligi oshirilgan;

raqamli aloqa tarmog‘iga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda tarmoqlararo ekranlash orqali tezkor texnologik radioaloqa liniyalaridagi ma’lumotlar almashinuvi va so‘zlashuvlar xavfsizligini ta’minlash usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

temir yo‘l uchastkalaridagi statsionar va lokomotiv ko‘chma radiostansiyalarining radioaloqa tarmog‘ida ishchi holatdiligini nazorat qilish interfeys dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan;

tezkor texnologik radioaloqa tarmog‘ida ruxsat etilmagan ma’lumotlar almashuvini va so‘zlashuvlarini tashqi omillar hamda qasddan buzishda kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tezkor texnologik radioaloqa tarmog‘ida internet protokoli asosida server va foydalanuvchi xodimlar o‘rtasida ma’lumotlarni uzatish va qabul qilish tarmog‘i yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy usullari hamda olib borilgan tajribaviy tadqiqotlar tahlili va yaratilgan texnik yechimlar, shuningdek laboratoriya va ekspluatatsiya qilish sharoitida sinovdan o‘tkazish natijalari muvofiqi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Olingan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati barcha harakat tarkibi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri poyezdlar harakati bilan bog‘liq bo‘lgan ishchi xodimlarning raqamli yangi radioaloqa tizimi ishlash tamoyili va tarmoqning barcha ko‘rsatgichlarini matematik usul bilan asoslangan energiya tejamkor kiberxavfsizlik talablariga mos ravishda onlayn platforma asosida yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati temir yo‘l transporti simli internet protokol tarmoqlarini simsiz raqamli radioaloqa standartlari asosida yangi tizim bilan o‘zaro bog‘lovchi dasturiy ta’minoti ishlab chiqilganligi, zamonaviy internet protokol texnologiyalar asosida dasturiy ta’minot bilan bog‘lovchi interfeys orqali temir yo‘l uchastkasidagi barcha lokomotivlarni hamda shu uchastkadagi barcha mobil terminallarni onlayn monitoring qilish yo‘li bilan poyezdlar harakatini boshqarishda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temir yo‘l transporti radioaloqa tarmog‘ini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

poyezd radioaloqasi tizimini berk (yopiq) bo‘shliqda radioto‘lqinlar tarqalishining matematik modellari majmui ishlab chiqilib, ular o‘z ichiga quyidagilarni olgan: radioto‘lqinlar bilan qoplashga qo‘yiladigan talablarni

qondiradigan raqamli retranslyatorlarni optimal joylashtirish matematik modeli; radioaloqa tarmog'ini chastota-hududiy jihatidan rejalashtirishning matematik modeli; radioaloqa tizimining algoritmi va ishlashining matematik modeli "O'zbekiston temir yo'llari" AJga qarashli "Angren-Pop" tunnelida va "Pop-1–Namangan–Andijon-2" uchastkalarida qo'llanilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2022-yil 4-apreldagi №01/1049-22-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan matematik modellashtirishlar asosida temir yo'l uchastkalarida texnologik jihatdan yagona temir yo'l radioaloqa tarmog'ini qurish, radioaloqa tizimining taqdim etilayotgan funkcionalligini ko'paytirish (oshirish), temir yo'l radioaloqasi tarmog'i ishonchliligini oshirish orqali poyezd radioaloqasi ma'lumotlar uzatish aniqligi va xalaqitbardoshligini oshirishga erishilgan;

temir yo'l transportida raqamli radioaloqaga asoslangan DMR standarti radiostansiyalarining GPS signallari ma'lumotlariga asoslangan holda poyezd dispetcheriga harakat tarkiblaridan olinadigan onlayn ma'lumotlar orqali monitoring qilish usuli "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ga qarashli "Pop-1–Namangan–Andijon-2" temir yo'l uchastkasida qo'llanilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJning 4-apreldagi №01/1049-22-son ma'lumotnomasi).

Olingan natijalar temir yo'l uchaskasida radioaloqani tashkil qilish va poyezdlar harakati xavfsizligini oshirish shu bilan birga ularni onlayn monitoring qilish orqali olingan ma'lumotlarni poyezd dispetcheriga va elektromexaniklariga onlayn uzatish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola, jumladan, respublika va xalqaro konferensiyalari to'plamlarida 7 ta, shundan Scopus bazasida 1 ta maqola hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan 4 ta EHM dasturlari uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi (asosiy matni) 120 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi ilm va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi taqdim etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslanganligi, olingan natijalarning amaliyotda qo'llanilganligi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha barcha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston temir yo'llari” AJning mavjud radioaloqa tizimi va qurilmalarining holati va muammolarini tadqiq etish** deb nomlangan birinchi bobida temir yo'l transportini boshqarishning turli


qismlarining o‘zaro hamkorligi va uzluksiz ishlashini ta‘minlash maqsadida texnologik radioaloqa tarmog‘i (keyingi o‘rinlarda temir yo‘l transporti radioaloqa tarmog‘i deb yuritiladi) tashkil etildi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining radioaloqa tarmog‘i (“O‘TY” AJ) korxonalar, tashkilotlar va temir yo‘l kompaniyasining tarkibiy bo‘linmalarini radioaloqa bilan ta‘minlash uchun birlamchi va ikkilamchi tarmoqlarning yig‘indisidir.

Temir yo‘l transportining birlamchi aloqa tarmog‘i (1-rasm) tarmoq tugunlari (TT), tarmoq stansiyalari (TS) va uzatish liniyalari (UL) jihozlarini o‘z ichiga oladi. U barcha oltita mintaqaviy temir yo‘l uzellari (MTU) hududida tashkil etilgan standart kanallarni (traktlarni) tashkil qilish uchun mo‘ljallangan va mamlakatdagi eng yirik idoraviy tarmoqlardan biri hisoblanadi.



1-rasm. “O‘TY” AJ MTU bo‘yicha birlamchi aloqa tarmog‘ini tashkil etishning umumiy ko‘rinishi

“O‘TY” AJning birlamchi tarmog‘i transport va texnologik segmentlarni o‘z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. “O‘TY” AJning birlamchi aloqa tarmog‘ini tashkil etishning umumlashtirilgan sxemasi

Transport tarmog‘i simmetrik kabellar, optik tolali aloqa liniyalari (hozirda 1565km yotqizilgan) asosida qurilgan magistral raqamli kommutatsiya aloqa tarmog‘i, radio va radiorele aloqa kanallari, sinxron raqamli iyerarxiya uzatish tizimlari (STM-1, STM-4, STM-16, shuningdek Keymile UMUX-1500 multipleksorlari), ATSning raqamli tugunlari (MiniKom DX-500 JT) harakatdagi abonentlar uchun radioaloqa (RS-46MSV, RLSM, RS46M, 42RTM-A2-CHM, Motorola GP-300, RV-1.1M va boshqalar) dan nafaqat “O‘TY” AJ ehtiyojlari uchun, balki mamlakatning temir yo‘lga tutashgan keng hududlarini axborotlashtirish uchun foydalaniladi. Tizimlaridagi mavjud muammolar o‘rganilgan va tezkor-texnologik radioaloqa tarmog‘ining (TTRA) ishlash shartlari, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ texnologik jarayonini tashkil etishdagi roli tahlil qilingan. O‘tkazilgan tahlillar asosida yangi “Pop-1–Namangan–Andijon-2” temir yo‘l uchastkalari uchun TTRA-IP tarmog‘i faoliyatiga qo‘yiladigan asosiy talablar shakllantirilgan.

Turli uzatish tizimlari va kommutatsiya stansiyasi asosida TTRA-IP tarmoqlarini tashkil etishning asosiy variantlari keltirilgan. DMR standartidan foydalangan holda TTRA tarmoqlarining tuzilmalarini takomillashtirish va ular asosida IP-radioaloqa tashkil etish taklif etilgan. IP-radioda ulanishni o‘rnatishning asosiy senariylari va protokollari keltirilgan.

Tezkor texnologik radioaloqalar tarmog‘iga potensial ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, TTRA-IP tarmoqlarida axborotni uzatishda quyidagi asosiy omillarini hisobga olish tavsiya etilgan: ma’lumotlarni ushlab turish; xizmat ko‘rsatishni rad etish ; raqamlarni buzish va servislarni o‘g‘irlash hamda tarmoq spami.

Tanlangan uchastkalardagi TTRA tarmoqlarida telekommunikatsiya xizmatlari sifatining talab darajasida bo‘lishini ta’minlash maqsadida quyidagi aniq vazifalarni hal qilish uchun tavsiyalar berilgan:

- axborot ta’siri sharoitida IP-radioaloqa asosida TTRA tarmog‘ining ishlash jarayonini modellashtirish;

- IP-radioaloqa asosida TTRA tarmog‘ining ishonchliligini hisoblash metodikasini ishlab chiqish;

- DMR standarti yordamida TTRA tarmog‘ini tashkil etishda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash va tizimini takomillashtirish zaruriyatini talab etadi.

Dissertatsiyaning “**Axborot ta’siri shartlarida raqamli radioga asoslangan TTRA tarmog‘i faoliyat jarayonining matematik modeli**” deb nomlangan ikkinchi bobida temir yo‘l stansiyalarida IP - tarmoq asosida TTRA-IP ni tashkil etish, TTRA-IP-texnologiyasida transport qatlami tarmoq protokolidan foydalanish, jo‘natuvchi qurilma keyingi paketlarni jo‘natishdan oldin qabul qiluvchi qurilmadan tasdiqlashni kutish shart emasligi bilan bog‘liq. TTRA-IP ma’lumotlari xuddi audio yoki video ma’lumotlar internet orqali yuborilgandek yuboriladi. Ovozli paketlarning kichik miqdorini yo‘qotish maqbul deb hisoblanadi va uni kodlash-dekodlash mexanizmi va turli xil nutq interpolatsiyasi usullarini qo‘llash, ya’ni, to‘lqin shaklini tahlil qiladigan va yetishmayotgan tovushni bashorat qiladigan DSP (Digital Signal Processing) – texnologiyasidan foydalangan holda yetishmayotgan tovushlarni to‘ldirish orqali kompensatsiya

qilish mumkin. 1-jadvalda turli xil kodlash usullarining o'rtacha sub'ektiv baholash ko'rsatkichlari ko'rsatilgan.

Muammo bayoni: tasavvur qilaylik, IP-sarlavhasi va foydalanilgan kodek tomonidan yaratilgan ma'lumotlar ramkasidan iborat paketlar uzatiladigan TTRA-IP tarmog'i bo'lsin (1-jadval).

1-jadval

Turli kodeklar uchun MOS (nutqning tushunarligini o'rtacha baholash) qiymatlari

Kodek	Uzatish tezligi, kbit/s	Nutqning tushunarligini o'rtacha baholash	Kadr o'lchami, ms
G.711 PCM	64	4,1...4,5	0,125
G.723 MP-MLQ ACELP	6,4	3,9	30
G.726 Multi-rate ADPCM	32/64	3,8 / 4,6	0,125
G.728 LD-CELP	16	3,8	0,625
G.729 CS-CELP	8	4,0	10

Berilgan xizmat sifatiga muvofiq tarmoqni tashkil qilishda uzatish marshrutlari aniqlanadi. Faraz qilaylik, har bir marshrutda kompyuter hujumlariga duchor bo'lgan m tugunlar va $m - 1$ bo'limlar mavjud.

Bo'limdagi uzatish vaqti texnik uzatish tezligi R va uzatiladigan ma'lumotlarning hajmi V bilan belgilanishi sababli $t_{uzatish} = \frac{V}{R}$. Bunda tarmoq elementining i -tugunidagi K_i -saqlash qurilmasi sig'imi; $\rho = \frac{\lambda_i}{\mu_i}$ - kirish yuklamasi, son jihatdan uzatish paketlarini λ_i qabul qilish intensivliklarining μ_i nisbatiga (ya'ni uzatish yo'lining i -uchastkasida uzatish); m tugunlar joylashgan marshrutdagi uchastkalar soni $m - 1$ bo'lganda. Paketning marshrut bo'ylab uzatish vaqti quyidagiga teng:

$$t_{uzatish,i} = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \left[\sum_{i=1}^{n-1} \frac{1}{\mu_i} \cdot \frac{1 - (K_i + 1) \cdot \rho^{K_i + K_i} \cdot \rho^{K_i + 1}}{(1 + \rho^{K_i}) \cdot (1 - \rho)} \right] = \sum_{i=1}^{n-1} \frac{1}{\mu_i}, \quad R = const. \quad (1)$$

Faraz qilaylik, TTRA-IP tarmog'iga axborotning halokatli ta'siri amalga oshiriladi, bu vaqtda tarmoq buzg'unchining (TB) n turini muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin, ularning har biri P_i ehtimollik bilan tarmoqni buzadi; $i = \overline{1, n}$ tarmoqni buzadi, ya'ni, paketlarni uzatish sifati maqbul darajadan pastga tushadigan sharoitlarni yaratadi. Agar tarmoq buzilmasa, ma'lumotlar paketlari $t_{uzatish}$ -vaqtda uzatiladi. Umumiy holda, $t_{uzatish}$ taqsimot funksiyasi (TF) $B(t)$ bo'lgan tasodifiy o'zgaruvchidir. Nosozlik bo'lsa, tarmoq tasodifiy t_{tik_i} vaqtida tiklanadi; $i = \overline{1, n}$ tiklash vaqti bilan TF $\Delta_i(t)$, kiruvchi ma'lumotlar paketi esa qayta uzatiladi.

Ma'lumotlar paketlarining kiruvchi oqimi kamdan-kam uchraydi, bunda oldingi paketga xizmat ko'rsatish vaqtida keyingi paketning kelish ehtimoli ahamiyatsiz darajada kichik, ya'ni tasodifiy xizmat vaqti uchun bunday oqimning intensivligi nolga intiladi. TB jarayoni TTRA-IP tarmog'iga paketlarni uzatish paytida ham, ular orasidagi pauzalarda ham kuzatilishi mumkin, uzatishni kutish uchun joylar soni cheksiz hisoblanadi. n turdagi TB sharoitida ma'lumotlar

paketlarini muvaffaqiyatli uzatish vaqtining matematik kutish \bar{T}_h va taqsimot funksiyasini aniqlash talab qilinadi.

Qo'yilgan masala bayonida tasvirlangan radioaloqadagi IP tarmog'ining ishlash jarayoni 3-rasmda stoxastik tarmoq ko'rinishida keltirilgan.

Stoxastik tarmoqda: $\beta(s)$ va $\delta_i(s)$ – tegishli taqsimot funksiyalarida Laplas-Stiltesning o'zgarishlari (2), buzg'unchi TBni hisobga olmagan holda paketni uzatish vaqtining TF, ya'ni, "ideal sharoitlarda" TBning i – turidan keyin tiklanish vaqti ma'nosini anglatadi:

$$\beta(s) = \int_0^{\infty} e^{-st} d[B(t)],$$


$$\delta_i(s) = \int_0^{\infty} e^{-st} d[\Delta_i(t)], i = \overline{1, n}. \quad (2)$$

Yopiq grafiklar uchun Meyson tenglamasidan foydalanib, biz stoxastik tarmoqning ekvivalent funksiyasini tuzamiz (3):

$$h_n(s) = \frac{k\beta(s)(\bar{d} + \bar{c} + s) \cdot \prod_{i=1}^n (1 - P_i)}{[1 - \beta(s) \sum_{i=1}^n P_i \delta_i(s) \prod_{j=1}^{i-1} (1 - P_j)](\bar{d} + s)} = \frac{V(s)}{U(s)}, \quad (3)$$

bunda $\bar{d} = \sum_{i=1}^n t_{tik.i}^{-1} P_i$; $\bar{c} = \sum_{i=1}^n t_{amal.osh.i}^{-1} P_i$ – TBni buzuvchi tomonidan tiklash va amalga oshirish intensivligining matematik taxminlari mos ravishda; $k = \frac{\bar{d}}{\bar{d} + \bar{c}}$ – paketni qayta uzatish va keyingi TBni amalga oshirish jarayonida tarmoq elementlarining ishlashini tiklash ehtimoli.

Qo'yilgan masala bayonida tasvirlangan radioaloqadagi IP-tarmog'ining ishlash jarayoni 3-rasmda stoxastik tarmoq ko'rinishida keltirilgan.



3-rasm. TTRA-IP-tarmog'idagi TB ning n -turi sharoitida stoxastik jarayon tarmog'ining ishlashi

Matematik kutilma va uzatish vaqtini taqsimlash funksiyasini aniqlash uchun $s = 0$ nuqtadagi holat va maxraj polinomlarining hosilalarining qiymatini (3) hisoblash talab qilinadi:

$$V'(s) = k \cdot \prod_{i=1}^n (1 - P_i) [\beta'(s)(\bar{d} + \bar{c} + s) + \beta(s)(\bar{d} + \bar{c})],$$

$$V'(0) = k(\bar{d} + \bar{c})(1 - \bar{t}_\beta) \cdot \prod_{i=1}^n (1 - P_i), \quad (4)$$

$$\begin{aligned}
U'(s) &= d \left[1 - \beta(s) \sum_{i=1}^n P_i \delta_i(s) \prod_{j=1}^{i-1} (1 - P_j) \right] + \\
&+ (\bar{d} + s) \left[-\beta'(s) \sum_{i=1}^n P_i \delta_i(s) \prod_{j=1}^{i-1} (1 - P_j) - \beta(s) \sum_{i=1}^n P_i \delta_i'(s) \prod_{j=1}^{i-1} (1 - P_j) \right], \\
U'(0) &= \bar{d} \left[1 - (1 - \bar{t}_\beta) \sum_{i=1}^n P_i \prod_{j=1}^{i-1} (1 - P_j) + \sum_{i=1}^n P_i \bar{t}_{\delta i} \prod_{j=1}^{i-1} (1 - P_j) \right]. \quad (5)
\end{aligned}$$

TB sharoitida paketni uzatish vaqtining matematik kutilishi bilan aniqlanadi (6):

$$\bar{T}_h = \frac{-d}{ds} \left[\frac{h_n(s)}{h_n(0)} \right]_{s=0}. \quad (6)$$

Uni quyidagicha o'zgartirib:

$$\bar{P} = \prod_{i=1}^n (1 - P_i); \bar{E} = 1 - \sum_{i=1}^n P_i \prod_{j=1}^{i-1} (1 - P_j). \quad (7)$$

Quyidagi ko'rinishda formula (6) ni olamiz:


$$\bar{T}_h = \frac{\bar{P}}{(1 - \bar{E})^2} \cdot \left[\sum_{i=1}^n P_i \bar{t}_{\delta i} \cdot \prod_{j=1}^{i-1} (1 - P_j) + \bar{t}_\beta \right].$$

Shunga ko'ra, dispersiya ushbu formula bilan aniqlanadi:

$$D[t_h] = h_1 - h_1^2 = \frac{d^2}{ds^2} \left[\frac{h_n(s)}{h_n(0)} \right]_{s=0} - \left[\frac{d}{ds} \left[\frac{h_n(s)}{h_n(0)} \right]_{s=0} \right]^2. \quad (8)$$

Paketni uzatish vaqtini taqsimlash funksiyasini olish uchun uning $h_n(s)$ tasviridan asl $H_n(t)$ ni hisoblash imkonini beradigan teskari transformatsiyani amalga oshirish kerak. TTRA-IP-tarmog'iga ma'lumotlar paketlarini olib kirish uchun vaqtni taqsimlash funksiyasini aniqlashning yuqoridagi usulini ko'rsatish uchun quyidagi muammoni ko'rib chiqamiz.

Ikki turdagi TB amalga oshirilganda TTRA-IP – paketlarning uzatilish vaqtini taqsimlash funksiyalarining oilasi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Ikki turdagi TB amalga oshirilganda TTRA-IP – paketlarning uzatilish vaqtini taqsimlash funksiyalari oilasi

Hisob-kitoblar davomida shunday natijalar olingan:

- mos keladigan tugunlar orasidagi $V = 10 \text{ Mbit}$ hajmli ma'lumotlar paketining o'rtacha uzatish vaqti $1S$ ga teng;

- TB tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng TTRA-IP tarmog'ining o'rtacha tiklanish vaqti mos ravishda $t_{tik_1} = 3 \dots 5S$ va $t_{tik_2} = 2,5 \dots 4s$ oralig'ida o'zgarib turadi;

- TB tomonidan amalga oshirishning o'rtacha vaqti mos ravishda $t_{amal.osh_1} = 50 s$ va $t_{amal.osh_2} = 100 s$ ni tashkil qiladi;

- TB tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimoli $0,08 \dots 0,8$ oralig'ida qiymatlarni oladi.

Buzg'unchi TB tomonidan amalga oshirish sharoitida modelda TB dan keyin tiklanish vaqti bilan tavsiflangan TTRA-IP-tarmog'ining axborot xavfsizligini boshqarish tizimi samaradorligining roli sezilarli darajada oshadi.

Axborot ta'siri sharoitida raqamli IP-radiosistemi asosida TTRA tarmog'ining ishlash jarayonini modellashtirish muammolari qo'yildi. Modelni baholash uchun matematik apparat tanlandi - stoxastik tarmoqlarni topologik o'zgartirish usuli (STTO'U), uning tanlovi kiber ta'sirni amalga oshirish bo'yicha individual operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha dastlabki ma'lumotlar faqat ularning o'rtacha qiymatlari darajasida mavjud edi. Modellashtirish natijasida alohida kichik jarayonlarni amalga oshirish vaqtini taqsimlash funksiyalari aniqlangan, ular asosida TTRA-IP tarmog'iga kiber ta'sir amalga oshirilgan.

Noyob (kamdan-kam hollarda keyingi bo'ladigan) ma'lumotlar oqimini uzatishda axborot ta'siri sharoitida IP-texnologiyalari asosida TTRA tarmog'i ishlash jarayonining matematik modeli ishlab chiqilgan, taklif etilayotgan model samarali va dastlabki ma'lumotlarning o'zgarishiga sezgir va kiber ta'sirning tanlangan turini amalga oshirish uchun sarflangan o'rtacha vaqtni aniqlash imkonini bergan.


O'ziga o'xshash ma'lumotlar oqimini uzatishda axborot ta'siri sharoitida IP texnologiyalari asosida TTRA tarmog'ining ishlashi jarayonining matematik modeli ishlab chiqilgan; taklif etilayotgan model ishga yaroqli va dastlabki ma'lumotlarning o'zgarishiga sezgir va tanlangan kiber ta'sir turini amalga oshirish uchun sarflangan o'rtacha vaqtni aniqlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Raqamli radio asosidagi tezkor texnologik radioaloqa tarmog'i ishonchliligini hisoblash metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida “Pop-1–Namangan–Andijon-2” uchastkalarida joylashgan temir yo'l bekatlari (vokzallar) radioaloqa markazining strukturaviy-funksional sxemasi birlashtirilgan, ya'ni ular konstruktiv jihatdan bir-biriga juda o'xshash. “Namangan” temir yo'l stansiyasi radioaloqa markazining blok diagrammasi misolida biz ishlashning ishonchliligini hisoblash uchun mantiqiy-ehtimoliy modelni quramiz. Temir yo'l bekatlari abonentlarini turli xil texnologik radioaloqa xizmatlari bilan ta'minlaydigan blok-sxema passiv retranslyator stansiyasi (optik kabel, o'zaro bog'liqliklar va boshqalar) va faol elementlar (radiostansiya) tarmoq uskunalari (multiplekser, marshrutizator, kommutator, server va texnologik kompyuter va ko'p funksiyali radioabonent terminallarini) o'z ichiga oladi. Bunday tarmoqning

asosiy elementlari quyidagilardan iborat: kommutatsiyalangan tarmoq paketli kommutatsiyalangan tarmoqqa ulangan shlyuz va ma'lumotlarni uzatish tugunlari: marshrutizatorlar, kalitlar va retranslyatorlari. Modelda ishlatiladigan asosiy grafik belgilar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

“Namangan” temir yo‘l stansiyasining radioaloqa markazining ishlashning ishonchligini hisoblash uchun mantiqiy-ehtimoliy modelni qurishda ishlatiladigan asosiy grafik belgilar

Shartli belgilar	Nomlanishi	Maqsad
 x_i, p_i	funksional tepalik	tizimning i elementi bilan bog‘langan va p_i ehtimolligi bilan sodir bo‘lgan x_i hodisasini ifodalaydi
	Soxta tepalik (Qalbaki cho‘qqi)	tizim elementlarini ifodalamaydi, yordamchidir, tizimda funksiyani amalga oshirishning mantiqiy shartlarini ifodalash uchun ishlatiladi
	diz'yunktiv yoy	cho‘qqiga kiradigan ayiruvchi yoy “YoKI” mantiqiy operatsiyasini ifodalash uchun ishlatiladi
	kon'yunktiv yoy	cho‘qqiga kiradigan kon'yunktiv yoy “VA” mantiqiy amalini ifodalash uchun ishlatiladi
	to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari chiqishlar	yoylarning cho‘qqilardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari chiqishlari tegishli elementlar va quyi tizimlar tomonidan chiqish (integral) funksiyalarni amalga oshirish shartlari (y_i) va amalga oshirilmasligi (\bar{y}_i) shartlarini ifodalaydi

UMEU asosida radioaloqa markazining standart sxemasini hisobga olgan holda, biz “Namangan” temir yo‘l stansiyasi aloqa markazining ishlashini hisoblash uchun modeli qurilgan.

IP-radioaloqa tizimining ishonchligini aniqlash qiyin, umumiy holatda TTRA tizimining (tarmoqning) ishonchligi uning tarkibiy elementlarining ishonchligi bilan belgilanadi.

Qayta tiklanmaydigan texnik ob'ektning ishlamay qolishi ehtimoli (9) formula bilan aniqlanadi:

$$P(t) = e^{-\lambda \cdot t}. \quad (9)$$

Kiber ta'sirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning tarqatish funksiyasini aniqlagandan so'ng, tarmoq elementining retranslyator va server ishlamay qolishi ehtimolini aniqlash mumkin (10):

$$P(t) = \frac{1 - F_r(t)}{1 - F_r(t) + \bar{t}_{tik} \cdot f(t)}, \quad (10)$$

bunda $F_r(t)$ – kiber ta'sirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning tarqatish funksiyasi, \bar{t}_{tik} – tarmoq uskunasining o'rtacha tiklanish vaqti, ya'ni TB


xarakatlarini neytrallash; $f(t) = \frac{\mu^\alpha}{\Gamma(\alpha)} \cdot t^{\alpha-1} \cdot e^{-\mu \cdot t}$ – zichlik funksiyasi, α, μ mos ravishda ko‘rinishi va masshtab parametrlariga teng bo‘ladi.

Matematik model yordamida temir yo‘l stansiyasi TTRA tarmog‘ining to‘g‘ri ishlashining umumiy mantig‘ini aniqlaymiz va bu real jihatdan radioaloqa markazining mavjudlik koeffitsientiga tengdir (11):

$$K_{i.elem}(t_f) = f_{elem.T.Y.stA}(t_f) = f_{20}(t_f) \wedge f_{25}(t_f) \wedge f_{38}(t_f)z \quad (11)$$

bunda $f_{20}(t_f)$ – t_f da stansiya, mahalliy, dispetcherlik radioaloqalarining to‘g‘ri ishlashi; $f_{25}(t_f)$ – t_f da stansiya va dispetcher radioaloqasining to‘g‘ri ishlashi; $f_{38}(t_f)$ – t_f da yaxshi ma’lumotlarni uzatish harakati.

5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, TB tarmoqqa ta’sir qilganda uning ish holati keskin yomonlashadi, jadval yillik miqyosda beriladi va normal holat ko‘rsatkichi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ optik tolali aloqa markazi va temir yo‘l tarmog‘i-ma’lumotlarni hisoblash markazi (texnik talablar va boshqarish usullari) bo‘limdagi barcha stansiyalarning radioaloqa tugun(uzel)lari ishlashining ishonchliligini hisoblash modellari va barcha bo‘limlarda optik tolali uzatish liniyalari (OTUL) ishonchlilik funksiyasining raqamli qiymatlari, “Pop-1–Namangan–Andijon-2” uchastkasining TTRA tarmog‘ining ishlashini hisoblash modeli qurilgan.




5-rasm. “Namangan” temir yo‘l bekatida radioaloqa markazining ishga tayyorlik koeffitsenti

Kiber ta’sirlarning tarmoq elementlarining unga ta’sirini hisobga olgan holda “Namangan” temir yo‘l stansiyasining aloqa markazining ishonchliligini hisoblash uchun mantiqiy-ehtimoliy model ishlab chiqilgan va simulyatsiya natijasiga baho berilgan.

“Pop-1–Namangan–Andijon-2” uchastkasi TTRA tarmog‘ining ishonchliligini, unga kiber ta’sirlar tarmog‘i elementlarining ta’sirini, shuningdek, uning strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda hisoblash uchun mantiqiy-ehtimoliy model ishlab chiqilgan. Simulyatsiya natijasi baholanadi va mavjudlik

koefitsientini oshirish uchun ta'mirlash va tiklash ishlari uchun qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tarmoqni tashkil etish va kiber ta'sirlardan himoya qilish bo'yicha yangi ilmiy-texnik takliflar berilgan.

Ushbu model asosida "Namangan" temir yo'l stansiyasi radioaloqa markazining ishonchliligining dinamik o'zgarishini olish mumkin (6-rasm).



6-rasm. "Pop-1-Namangan-Andijon-2" uchastkasi uchun ishlab chiqilgan ilmiy-texnik yechimlarni amalga oshirish jarayonida raqamli radioaloqa tarmog'ini ishga tayyorlik darajasining DDoS-xujumlarning oylar bo'yicha diagrammasining o'zgarishi

Dissertatsiyaning "Ishlab chiqilgan IP-tarmoq asosida raqamli radioaloqa tarmog'ini temir yo'l uchastkalariga tadbiriq etish" deb nomlangan to'rtinchi bobida "Pop-1-Namangan-Andijon-2" uchastkasida raqamli radioaloqa tarmog'ining ishonchliligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-texnik yechimlardan foydalanish jarayonida raqamli radioaloqa tarmog'ini ishga tayyorlik darajasining DDoS-xujumlarning oylar bo'yicha diagrammasining o'zgarishi 6-rasmda keltirilgan.


Olingan natija tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi ilmiy-texnik yechimlarni amalda tatbiq etish "Pop-1-Namangan-Andijon-2" uchastkasida TTRA tarmog'ining ishonchlilik darajasini yanada takomillashtirish va uning tarmoq elementlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kiber ta'sirlarni hisobga olgan holda sezilarli darajada oshiradi.

Olingan natija axborot xafsizlik tizimi standartlari bo'yicha talab qilinadigan ishonchlilik darajasini qondiradi, ya'ni yillik miqyosda dispatcherlik darajasidagi tarmoqlardagi kamchiliklar yoki nosozliklarning o'rtacha soni va vaqti 10 daqiqadan oshmaydi.

Turli raqamli uzatish tizimlari va kommutatsiya stansiyalari asosida "Pop-1-Namangan-Andijon-2" uchastkasida raqamli radioaloqa tarmog'ini loyihalashda kapital xarajatlar hisoblab chiqilgan va natijalari quyidagi (7-rasm) diagrammada keltirilgan.

Raqamli radioaloqa tarmog'ining kiberbarqarorligini oshirishning asosiy usullari taklif qilingan, raqamli radioaloqa tarmog'ini kiber ta'sirlardan himoya

qilishning juda samarali usuli bo‘lgan tarmoqlararo ekran (xavfsizlik devorlari)dan foydalanish taklif qilingan.



7-rasm. “Pop-1–Namangan–Andijon-2” uchastkasi raqamli radioaloqa tarmoqlarini loyihalashda kapital xarajatlarni hisoblash natijasini tahlil qilish

“Pop-1–Namangan–Andijon-2” uchastkasida raqamli radioaloqa tarmog‘ini loyihalashda iqtisodiy xarajatlarni hisoblandi va tarmoqni turli raqamli uzatish tizimlari va kommutatsiya stansiyasi asosida loyihalash orqali qiyosiy tahlil qilingan.

XULOSA

Temir yo‘l transporti radioaloqa tarmog‘ini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy amaliy tadqiqot va tahliliy natijalar yuzasidan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tezkor texnologik aloqa tarmog‘ida simli va radioaloqa vositalarining zamonaviy holati va muammolari tadqiq qilingan. Natijada mavjud radioaloqa tarmoqlarida zamonaviy raqamli uzatish va qabul qilish stansiyalar hamda ko‘chma radiostansiyalar asosida tezkor texnologik radioaloqani tashkil etish uchun zarur bo‘lgan talablar aniqlangan.

2. Temir yo‘l uchastkalarida radioaloqa tarmog‘ini haqiqiy vaqt birligida onlayn tarzda interfeysli dastur asosida tahlillash va bashoratlash usuli yaratilgan. Natijada harakatlanuvchi tarkiblarni haqiqiy vaqt birligida aniq joylashuvi bo‘yicha poezd dispetcherlik markazida tahlillash imkoniyati yaratilgan.

3. Tezkor texnologik radioaloqa tarmog‘ida ruxsat etilmagan ma‘lumotlar almashuvini va so‘zlashuvlarini tashqi omillar hamda qasddan buzishda kiberxavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada ma‘lumotlarni uzatishda Internet protokollariga asoslangan raqamli radioaloqa tarmog‘ini himoya qilishning samarali usuli xavfsizlik devorlaridan foydalanish tavsiyalari ishlab chiqilgan.

4. Mantiqiy ehtimollar va stoxastik tarmoqlarni topologik o‘zgartirish usullari asosida tezkor texnologik radioaloqa tarmog‘ining ishonchlik ko‘rsatkichlari

asoslangan. Natijada ma'lumotlar oqimini uzatishda axborot ta'siri sharoitida radioaloqa tizimining ishonchlilik ko'rsatkichlari mantiqiy ehtimollar va stoxastik tarmoqlarni topologik o'zgartirish usuli hamda Laplas konvertatsiyasi qonunlari qo'llagan holda ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan model samarali va dastlabki ma'lumotlarning o'zgarishiga sezgir bo'lib, tanlangan turdagi kiber ta'sirni amalga oshirish uchun sarflangan o'rtacha vaqtni aniqlash tizimi ishlab chiqilgan.

5. Temir yo'l uchastkalaridagi statsionar va lokomotiv ko'chma radiostansiyalarining radioaloqa tarmog'ida ishchi holatidagini nazorat qilish interfeys dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan. Natijada radioaloqa tarmog'ini ishchi holatidagini onlayn tahlillash va aniqlangan nosozliklar ma'lumotlari uchastka elektromexaniklariga onlayn uzatilib, poezdlar harakat xavfsizligini yanada oshirish imkoniyati yaratilgan.

6. Tezkor texnologik radioaloqa tarmog'ida internet protokoli asosida server va foydalanuvchi xodimlar o'rtasida ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish tarmog'i yaratilgan. Natijada ma'lumotlar paketlarining tartibsizligi muammosi va ketma-ket uzatish hamda tasdiqlash masalalari transport qatlami tarmoq protokoli asosida amalga oshirilgan.

7. Tadqiqot natijalari "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tasarrufidagi "Pop-1–Namangan–Andijon-2" temir yo'l uchastkasiga joriy etilgan. Natijada radioaloqa tarmog'ini tashkil etgan uskunalarning kamayishi texnik xizmat ko'rsatish jarayoni shtat birligi va ma'lumot uzatish vaqtining qisqarishi hamda nosozliklarni oldindan tahlillash asosida poezdlar harakat xavfsizligi ta'minlangan, shuningdek temir yo'l transporti radioaloqa tarmog'ini zamonaviy tizimlar asosida takomillashtirish asosida umumiy iqtisodiy yillik samaradorlik 214 mln. so'mni tashkil etgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ
СТЕПЕНЕЙ PhD.15/31.08.2022.Т.73.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХУРРАМОВ АСЛИДДИН ШОКИР УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СЕТИ РАДИОСВЯЗИ
ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА НА ОСНОВЕ
СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

05.08.03 – Эксплуатация железнодорожного транспорта

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В2023.4.PhD/Т4293.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Халиков Абдулхак Абдулхаирович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Давронбеков Дилмурод Абдужалилович
доктор технических наук, профессор

Болтаев Суннатилло Туймуродович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный
технический университет имени
Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится 29 август 2024 г. в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.15/31.08.2022.Т.73.01 при Ташкентском государственном транспортном университете. Адрес: 100167, Ташкент, Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54, e-mail: rektorat@tstu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Ташкентском государственном транспортном университете (регистрационный номер №181). Адрес: 100167, Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66.

Автореферат диссертации разослан 17-августа 2024 года.
(протокол реестра №45 от 17-августа 2024 года).



Н.М. Арипов
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Ш.М. Суюнбаев
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

М.Х. Расулов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, к.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Обеспечение безопасности движения и повышение надежности на высокоскоростных участках железнодорожного транспорта, совершенствование управления движением поездов с использованием технологических радиосистем на основе цифровых технологий занимает ведущее место. Использование функций цифровых сетей открывает принципиально новые возможности для технологической железнодорожной радиосвязи, что значительно улучшает эффективность и безопасность транспортного процесса. В целях повышения и обеспечения безопасности движения на железнодорожном транспорте в развитых странах, выявлено, что системы контроля состояния устройств радиосвязи и прогнозирования отказов устройств не отвечают требованиям инструкций правил технической эксплуатации железных дорог. В связи с этим, повышение надежности радиоустройств и систем посредством дистанционного обнаружения неисправностей в реальном времени и применения современных методов измерений приобретает особую важность. Также в настоящее время особое внимание уделяется разработке и внедрению энергоэффективных и безопасных технологий и устройств.

На мировом уровне ведутся научные исследования, направленные на обеспечение высокой степени безопасности движения и создание современных автоматизированных устройств через совершенствование систем контроля и управления технологическими сетями радиосвязи на железнодорожном транспорте. В этом направлении, в частности, важно проводить исследования по разработке упрощенных алгоритмических программных решений для управления и мониторинга систем технологической железнодорожной радиосвязи на основе современных цифровых технологий, а также исследования, направленные на повышение надежности этих систем. Кроме того, актуальной задачей является передача показателей надежности системы технологической радиосвязи, результатов мониторинга и устранение выявленных недостатков ответственному электромеханику железнодорожного участка в реальном времени.

В нашей республике проводятся работы по модернизации устройств и элементов систем безопасности железнодорожного транспорта, связанных с подвижным составом, переходу от аналоговых устройств к цифровым, а также по устранению других недостатков в системе. В стратегии развития «Нового Узбекистана» на 2022-2026 годы обозначены ключевые и важные задачи, в том числе по «...широкому внедрению информационных технологий, запуску аналитических геопорталов, собирающих данные по транспорту, инфраструктуре, социальным и другим отраслям, увеличению экспорта программного обеспечения и других услуг в 1,7 раза, развитию единой транспортной системы, связывающей разные виды транспорта, совершенствованию системы общественного транспорта и развитию ее

инфраструктуры...»¹. Важной задачей в этой связи, является снижение количества отказов в системе поездной радиосвязи, повышение ее надежности, создание устройств для мониторинга системы на основе высокоточных элементов и научное обоснование их применения.

